

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR HAYOTIDA O'YINCHOQLARNING AHAMIYATI

**Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna**

*TerDPI o'qituvchi (PhD)*

**Safarova O'raloy Abdurashid qizi**

*TerDPI magistranti*

*safarovaoraloy@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishida o'yinchoqlarning tutgan o'rne hamda bolalardagi turli psixologik jarayonlar tasavvur, xotira tafakkur va diqqatning ham shakllanishidagi ahamiyati to'g'risida yoritilgan.*

**Tayanch tushunchalar:** *Bola, o'yinchoq, tafakkur, nutq, xotira, obrazlilik, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, rolli o'yin.*

Hammamizga ma'lumki maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida o'yinchoqlarning ahamiyati beqiyosdir. O'yinchoqlar orqali bolalarda aqliy, axloqiy, estetik hamda jismoniy tarbiya shakllanadi. Bundan tashqari o'yinchoqlar bilan o'ynash jarayonida bolalarda beixtiyor nutqning ham dastlabki ko'rinishlari rivojlanadi. Ya'ni bitta o'yinchoq bilan o'ynash orqali bolada nutq, tafakkur, xotira va tasavvur shakllana boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda olib boriladigan faoliyatlar quyidagilar bo'lib ular:

- o'yin
- o'qish
- mehnat

Ushbu faoliyatlar orqali bola aqliy hamda axloqiy jihatdan yuksaladi. Endi o'yinchoqlarning paydo bolish tarixiga nazar tashlasak, barcha tarixiy davrlarda o'yinchoq o'yin bilan bog'liq edi. Bu bolaning odatiy ko'rinishi shakllanadigan faoliyat ong, jismoniy va axloqiy faoliyatdir. Qadimgi misrning eng qadimdan ma'lum bo'lgan o'yinchoqlari miloddan avvalgi 3ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu davrda o'yinchoqlar yog'ochdan yasalgan bo'lib, turli hayvonlar ko'rinishida bo'lgan. Keyinroq esa bizga ma'lum bo'lgan o'yinchoq ya'ni qo'g'irchoq paydo bo'ldi. Misrning eng qadimgi qo'g'irchoqlari 4ming yillik tarixga ega bolib, ular dastlab turli ingichka yog'ochdan yasalgan va naqshlar bilan bezatilgan.

O'yin - bu dunyoni anglashning dastlabki bosqichi hisoblanadi. O'yin faoliyati boshqa faoliyatlarga qaraganda bola uchun oson va tushunarli bo'lgan faoliyatdir. O'qish hamda mehnat faoliyati esa bola uchun biroz murakkab bo'lgan jarayondir. O'yinchoq bolalar o'yinlari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan foydalanish bolalalar bilim doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, atrof muhitga bo'lgan qiziqishni ham uyg'otadi. O'yinchoqlar bilan o'ynagan va unga oshno bo'lgan bolalar tevarak atrofdagi insonlar va o'zining tengdoshlari bilan muloqotda qiynalmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalalar

tarbiyasini o'yinchoqlar bilan tashkil etish bolalarda aqliy, axloqiy, estetik, mehnat, sensor hamda iqtisodiy tarbiyaning turli shakllarini rivojlantiradi.

O'yinchoqlar bilan ko'p o'ynaydigan bolalar jismonan sog'lom aqliy tomondan esa barkamol bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga o'yinchoq berishdan oldin uning tozaligiga, bola yoshiga mosligiga va gigeyenik tomondan barcha talablarga mos keladigan o'yinchoqni tanlash zarur. O'yinchoqlarga quyidagi 3ta talab qo'yiladi.

1. Badiiy
2. Gigeyenik
3. Pedagogik

Ushbu talablar bolaga o'yinchoq berishdan avval hech qaysi ota-ona hamda tarbiyachining yodidan ko'tarilmasligi zarur. Sababi shundaki agarda gigeyenik talabga javob bermaydigan o'yinchoq bolaga berilsa, bolada turli kasalliklar paydo bolishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek badiiy jihatdan bolalarga o'rnak namuna bo'la oladigan o'yinchoq tanlash zarur. O'yinchoqning tashqi ko'rinishiga qarab, bolalarda ijobiy yoki salbiy qarashlar shakllanadi. Agarda o'yinchoqda ijobiy qahramonlar xususiyati aks etgan bo'lsa, bolada ham xuddi shu qahramondagi kabi vatanparvarlik, do'stlik, sadoqat, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni esa izzat qilish kabi hislatlar ko'nikmasi shakllanadi. Agarda o'yinchoqda salbiy qahramon qiyofasi aks etgan bo'lsa bu bolaga aks ta'sir etadi. Misol uchun bolalarni Zumrad va Qimmat ertak qahramonlari bilan tanishtirish mumkin. Bu jarayonda Zumradning mehnatsevarligi, donoligi, aqlliligi, Qimmatning esa dangasaligi, kattalarni hurmat qilmasligi va beodoblilik kabi xislatini bolalarga tushuntirish mumkin. Bu jarayonda ham bolada ijobiy hislatlar shakllanadi. Chunki bola eng buyuk taqlidchi hisoblanadi.

O'yinchoqlarga bòlgan asosiy talab o'yinchoq maktabgacha yoshdagi har bir yosh darajasida bolaning rivojlanishiga hissa qo'shishi kerak. O'yinchoqni tanlashda bolaning yosh xususiyatiga asoslanish kerak, shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yagona pedagogik qimmatbaho o'yinchoq bo'lmaydi. Shu boisdan ham bolaga o'yinchoq tanlashda qator talablarga javob berish zarur.

O'yinchoqlar bolani kelajakka bo'lgan dastlabki qo'yadigan qadami desak ham xato bo'lmaydi. Sababi, o'yinchoqlarning tashqi ko'rinishida biror bir kasb egasining ko'rinishi bo'lsa bu ko'rinish bolaning ongiga ta'sir qiladi va u ham kelajakda xuddi shu kasb egasi bo'lishni xohlaydi, orzu qiladi. Shuni esda tutish kerakki, boshqa hech qanday xalq amaliy san'ati bolada milliy xususiyatlarni, estetik xususiyatni, u o'zi sevadigan o'zi xohlagancha o'ynaydigan o'yinchoq'i kabi tarbiyalamaydi.

O'zbek xalqi qadim-qadimdan xalqparvar va mehmondo'st xalq sifatida tanilib kelmoqda. Bugungi kunda ham shu qiymatida va o'z o'rnida yuksalib kelmoqda. Bugungi texnologiyalar avj olib rivojlanayotgan davrda yashayotgan ekanmiz, bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir qiluvchi ko'plab xorijiy davlatlar o'yinchoqlari bizning ham mamlakatimizda oz emas. Bunday turdagi o'yinchoqlarning ayrimlari bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada esa bolalar kattalarni hurmat qilmaydigan, do'stlik va boshqalar mehnatini

qadrlamaydigan bo'lib bormoqda. Aslida esa o'yinchoqlar bolalarning ongu shuuriga faqatgina yaxshilik kabi ijobiy hislatlarni singdirishi kerak. Chunki o'yinchoq o'yin va boshqa hayotiy maqsadlar uchun mo'ljallangan buyum. Barcha maktabgacha yoshdagi bolalarga yaxshilab e'tibor beradigan bo'lsak, deyarli hamma o'g'il bolalar faqatgina texnika o'yinchoqlarini turli avtomobillarni tanlashadi. Qiz bolalar esa faqat qo'g'irchoqlarni o'zlari uchun o'yinchoq sifatida tanlaydi.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ota-onalar farzandlariga olib bergan ilk o'yinchoq'i agarda o'g'il bola bo'lsa mashina agarda farzandi qiz bola bo'ladigan bo'lsa qo'g'irchoq olib berganligi sababli bo'ldi. Bu juda haqiqatga yaqin tadqiqot hisoblanadi. Chunki ayrim ota-onalar farzandining kelajakda qaysi kasb egasi bolishlarini xohlasa xuddi ana shu kasb egasining qiyofasi aks etgan o'yinchoq yoki o'sha kasbni ko'rsatib beruvchi asboblarni jamlanmasini olib kelib berishadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad shundan iboratki, o'sha farzandda shu kasbga nisbatan mehr, qiziqish va muhabbat uyg'otishdir.

O'yinchoq bolani xursand qiladi, quvontiradi va atrof- muhitga ijobiy munosabatini uyg'otadi. Qo'g'irchoq bilan o'ynash bolalarda g'amxo'rlik, hurmatli munosabat, ehtiyotkorlik, muloyimlikni uyg'otadi va ijobiy axloqiy tajribalarni to'plashga yordam beradi. O'yinchoqlar sifat va miqdoriy jihatdan ma'lum dozani talab qiladi. Bu haqida Lokk ta'kidlaganidek, bir yilgacha bir vaqtning o'zida bolaga bittadan ortiq o'yinchoq berilmasligi kerak. Bir yildan ikki yilgacha bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq o'yinchoqqa ega bo'lishi mumkin. Keyin uning diqqatini jamlash qobiliyati va individual xususiyatlari aniqlanadi undan so'ng esa bolaning qobiliyatiga qarab o'yinchoqlar sonini ko'paytirib boriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning eslab qolish qobiliyati kuchli bo'ladi. Bolalikda his-hayajon bilan idrok etilgan narsalar bir umr esda qoladi. Shuning uchun ham bolaga o'yinchoq olib berishda etiborliroq bo'lish lozim. Qiz bolalar uchun yumshoq o'yinchoqlar, yoki bo'lmasam o'zbek milliylik aks ettirilgan qo'g'irchoqlar sovg'a qilish tavsiya etiladi. O'yinchoqlar xilma-xilligi orasida rivojlanishga yordam berishning o'rniga, psixikaning vayron bo'lishiga va tarbiya buzilishiga olib keladigan o'yinchoqlar ham mavjud. Masalan, qo'rqinchli kiborglar, yuzlari bo'yalgan qo'g'irchoqlar, chandiqlari va so'g'allari bo'lgan xunuk hayvonlar kabi o'yinchoqlar shular jumlasidandir. Bu o'yinchoqlarni olib berish umuman tavsiya etilmaydi. O'g'il bolalarga esa asosan o'zbek xalq ertaklari qahramonlari va ularning tabiatiga mos bo'lgan o'yinchoqlarni sovg'a qilish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, o'yinchoqning rangi, tuzilishiga ham etibor qaratish kerak. Och rangdagi o'yinchoqlar bolaning kayfiyatini ko'tarishga, uning yaxshi va xotirjam uxlashiga yordam beradi. Mutaxassislarining fikricha, o'yinchoq nafaqat bolani ovuntirishga, balki jismoniy va manaviy kamolotiga, asab faoliyati, tafakkurining shakllanishiga ham xizmat qiladi. Shu bois o'yinchoqlarning nafisligi, toza mahsulotdan tayyorlanganligi, manaviy tasiriga alohida etibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

O'yinchoqlarni bolaning yoshiga mos tarzda tanlash muhimdir. Bola ulg'ayib borgani sayin murakkabroq bo'lgan, aqlni charxlaydigan boshqotirma shaklidagi o'yinchoqlar

tanlanadi. Shifokorlarning fikricha, har bir ota-ona farzandiga o'yinchoq tanlayotganida uning sifatiga, qanday materialdan tayyorlanganiga, yoshiga mos kelishiga alohida etibor qaratishi juda muhim.

Chunki tarkibida sogliq uchun zararli elementlar mavjud o'yinchoqlar ham yo'q emas. Ayni paytda yurtimizda urf-odat va ananalarimiz, milliy qahramonlarimizning o'ziga xos fel-atvori aks etgan qo'girchoqlar ishlab chiqarishga, qo'girchoqsoz xunarmandlar uchun qulay sharoit yaratishga alohida etibor qaratilmoqda.

#### ADABIYOTLAR:

1. Sodiqova.Sh. Maktabgacha pedagogika - T., " Tafakkur bo'stoni" ,1992.
2. Xasanboyeva. O .Maktabgacha ta'lim pedagogikasi- T., Ilm ziyo. 2006.
3. Bolalar bog'chasi uchun o'yinchoq va qo'llanmalar. Irgasheva.V.M .Ma'rifat -1987.
4. A.K.Xamrayevna . Maktabgacha yoshdagi bolalarga talim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarini qollash asosida bolalarning ijodiy faolligini oshirish samaradorligi // - Innovation in the modern education system, 2023.-B.62-66
5. KX Allaberdieva.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishning neyropedagogik imkoniyatlari // Innovatsii v pedagogike i psixologii, 2020. SI-2№ 3
6. Allaberdiyeva Kumri. Formation Of Creative Abilities For Students At Presidential Schools Based On Akmeological Approach // International Journal of Advanced Science and Technology. ISSN: 2005-4238 IJAST 2020.B. 2054-2057
7. GM Altibaeva. Osobennosti organizatsii vzaimodeystviya doshkolnogo obrazovatel'nogo uchrejdeniya semyami vospitannikov. Vestnik sovremennoy nauki 19-22
8. G. Altibaeva. Processes of Formation intellectual Abilities of Preschool Teachers Through innovative Technologies. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 3 18-21
9. Majitovna, A. G. (2022). Processes of formation of intellectual abilities of preschool children by means of innovative technologies. World Bulletin of Social Sciences, 7, 73-74.
10. Majitovna, A. G. (2022). Processes of formation of intellectual abilities of preschool children by means of innovative technologies. World Bulletin of Social Sciences, 7, 73-74.
11. Алтибаева, Г. М. (2016). ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ДЕТСКИХ ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ. Вестник современной науки, (6-2), 15-18.
12. Алтибаева, Г. М. (2016). ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ С СЕМЬЯМИ ВОСПИТАННИКОВ. Вестник современной науки, (6-2), 19-22.